

## Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida, Buxoro viloyatida jami 3 215,0 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil etdi.

#### Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>3215,0</b>	<b>103,6</b>
Buxoro sh.	549,0	117,2
Kogon sh.	55,1	77,6
Olot tumani	134,7	101,7
Buxoro tumani	155,0	102,3
Vobkent tumani	67,7	103,4
G'ijduvon tumani	159,8	103,1
Kogon tumani	152,6	104,6
Qorako'l tumani	131,7	58,5
Qorovulbozor tumani	130,3	117,7
Peshku tumani	133,6	105,1
Romitan tumani	226,4	110,0
Jondor tumani	138,9	109,2
Shofirkon tumani	127,9	104,7


Mavzuga doir ko'satkichlar:  
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)  
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlaringin iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 67,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 90,5 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 23,0 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 181,6 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,9 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	124,9	197,0	111,4
o'sish sur'ati, %	68,0	142,9	89,2
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	574,9	543,4	206,3
o'sish sur'ati, %	74,6	2,0 m.	109,6
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1 457,1		
o'sish sur'ati, %	102,1		

Mavzuga doir ko'satkichlar:  
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)  
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)  
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)  
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)  
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)  
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

### III. Jami qurilish ishlari hajminingkorxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 433,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 97,1 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,0 % ga kamayib, 13,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 41,2 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ni tashkil etgan holda 1 324,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 45,3 % ni yoki 1 457,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,1 % ni tashkil etdi.

#### Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari





Hududlar kesimida korxona turlari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>433,3</b>	<b>1 324,6</b>	<b>1 457,1</b>	<b>97,1</b>	<b>107,8</b>	<b>102,1</b>
Buxoro sh.	84,9	321,0	143,1	152,0	118,8	100,3
Kogon sh.	13,6	24,0	17,5	56,2	83,3	97,3
Olot tumani	7,6	89,2	37,9	16,6	178,5	104,3
Buxoro tumani	1,7	94,9	58,4	38,1	106,5	100,8
Vobkent tumani	3,9	30,8	33,0	3,5 m.	107,0	92,7
G'ijduvon tumani	16	76,3	67,5	13,9 m.	89,2	99,0
Kogon tumani	24,2	80,2	48,2	100,4	104,7	106,5
Qorako'l tumani	20,5	76,9	34,3	16,2	112,0	115,0
Qorovulbozor tumani	101,5	22,6	6,2	126,3	103,0	73,4
Peshku tumani	2,7	74,5	56,4	-	103,5	102,4
Romitan tumani	74,0	89,6	62,8	172,7	84,8	109,5
Jondor tumani	8,1	91,3	39,5	4,2 m.	103,5	106,6
Shofirkon tumani	12,5	76,8	38,6	5,2 m.	94,1	100,9

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari G'ijduvon tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 13,9 m.), Shofirkon tumani (5,2 m.) va Jondor tumanida (4,2 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari Olot tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 178,5 %), Buxoro shaxri (118,8 %) va Qorako'l tumani (112,0 %) kuzatildi.

#### IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiyamatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlaminini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlaringin statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;



- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
Sh. Xodjaev  
65 223-81-99 (8020)

**Manzil:**